

Muqaddas Qaxramonovna Raxmanova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Umumiy pedagogika kafedrasи professori,

Pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy mas’uliyat, o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasiga kirib borish uchun zarur psixologik-kommunikativ sifatlar, ijtimoiy xulq-atvor va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy faollashirishning samarali yo‘llari, ilg‘or usul va vositalari haqida o‘z tavsiyalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiy faoliy, ma’naviy faoliy, madaniyat, keng dunyoqarash, ijtimoiylik, pedagogik vaziyat, ko‘nikma, indikator.

Аннотация. В статье представлены рекомендации об эффективных путях формирования у студентов высших учебных заведений профессиональной ответственности, необходимых психолого-коммуникативных навыков и качеств для вхождения в коллектив преподавателей и учеников, способах социализации.

Ключевые слова. Социальная активность, духовная активность, культура, широкое мировоззрение, социализация, педагогическая ситуация, навык, индикатор.

Abstract. The article presents recommendations on effective ways of formation of students of higher educational institutions of professional responsibility, the necessary psychological and communication skills and qualities to come into the team of teachers and students, methods of socialization.

Keywords. Social activity, spiritual activity, culture, wide outlook, socialization, teaching situation, skill, indicator.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta.ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim va oliy ta’limdan qeyingi ta’lim boskichlarini o‘z ichiga olgan uzluksiz ta’lim tizimi joriy etildi. Uzluksiz ta’lim tizimini amalda tatbiq; etishda ijtimoiy pedagogikaning o‘rni va ahamiyati katta sanaladi. Yoshlar uzluksiz ta’lim va tarbiyaga ehtiyoj sezuvchi muhim ijtimoiy qatlama sanaladi. Jamiat va davlatning kelajagi asosan uning yoshlarining qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq bo‘ladi.

Sababi yoshlar o‘z ijtimoiylashuvi ya’ni, uzluksiz ta’lim-tarbiya., natijasida jamiyatdagi turli munosabatlari faollashadi hamda u ijtimoiy munosabatlarning

sub'ekti sifatida harakatlantiruvchi shaxsga aylanadi. Mazkur jarayonda ijtimoiy institut sanalmish uzlusiz ta'lism tizimining ta'siri katta.

Uzlusiz ta'lism-tarbiya ong mahsuli hisoblanadi. U qadimdan inson kamoloti va millat ravnaqining asosi sanalgan. Negaki u har bir shaxs uchun birlamchi mohiyatga ega. Barcha insonlar, xususan yoshlar uchun mustaqil fikrning shakllanishida uzlusiz ta'lism-tarbiya oiladan keyin dastlabki ijtimoiy makon va tarbiya o'chog'idir. Maktab, ta'lism-tarbiya ishlarining davlat va jamiyat nazoratida ekanligining Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgani ham bejiz emas ekan. Ma'lum bo'ladiki, yoshlar dastlab oilada hamda ta'lism-tarbiya muassasalarida ijtimoiy faollandishib, shaxs sifatida shakllansa, keyinchalik u davlat va jamiyat uchun o'z mustaqil pozitsiyasiga ega fuqaro bo'lib ham shakllanar ekan.

Yoshlar o'zlarining uzlusiz ta'lism-tarbiya natijasida olgan tegishli bilim va ko'nikmalari vositasida yoxud mustakil, dunyoqarashi. shakllanishi natijasida tabiiy ravishda siyosiy va ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishga intiladi. Mazkur jarayonlarda u shaxs sifatida shakllanishi natijasidagina ishtirok etishi. mumkin bo'ladi. Shaxs tushunchasining mohiyatini insonning o'zligini anglashi va unda mustaqil fikr hamda ichki erkinlikning vujudga kelishi tashkil etar ekan. Yoshlarning to'laqonli shaxs sifatida shakllanishi esa uning xulq-atvorining shakllanishiga muntazam tarzda ustuvor masala sifatida e'tibor qaratishi hamda siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlar to'g'risidagi mustaqil tasavvurlarini shakllantirib borishiga bog'liq.

Yoshlarning ijtimoiy; faolligi — bu muhim ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishini anglatadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi shaxsning jamiyattda, o'z o'rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishning asosiy sharti ham hisoblanadi. Yoshlar ijtimoiy faolligining quyidagi uchta turi mavjud bo'lib: u ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va madaniyat, mehnat hamda turmush sohasidagi kabilarni o'zida mujassam etadi. Mehnat faolligi mehnat munosabatlari sohasida, namoyon bo'ladi va yoshlarning kasbiy-ijtimoiy vazifasini bajarishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi. U yoshlar ijtimoiy faolligining asosiy, belgilovchi turi sifatida e'tirof etiladi. Uning shakllari quyidagicha: tejamkorlik, saranjomlik uchun harakat, ilmiy-texnikaviy ijodda ishtirok etish, ratsionalizatorlik, ixtirochilik va boshqa harakatlardan iborat bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va madaniyat hamda turmush sohasidagi yoshlarning ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlardagi hamda shaxsiy hayotdagi faoliyatida namoyon bo'lishi bilan ham ahamiyatlidir.

Ijtimoiy faollik birinchi navbatda insonning ma'naviy olamini, shu asosda aql zakovatini, iymon e'tiqodini mustahkamlash, hayotiy pozitsiyasini belgilash uchun kurash, intilish va faol harakat qilish demakdir. Shu sababli yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish muammolari xalqimizning milliy g'oyasi, istiqlol mafkurasi tizimida ham katta o'rin olgan.

Yoshlarni ijtimoiy faollashtirishning samarali yo'llari, ilg'or usul va vositalari ko'p. Lekin hozirgi kunda ulardan eng zarur indikatorlarni tanlab olish va ularga e'tibor berishga ehtiyoj bor. "Indikator (lotincha indico- "ko'rsataman, aniqlayman")- bu "biror jarayonning borishini yoki kuzatilayotgan ob'ektning holatini inson idrok etadigan qulaylikda aks ettirishdir". Shu ma'noda yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faollashtirish indikatorlari muayyan omillar, mezonlar va yo'nalishlar majmuidan iborat.

Bugungi kundagi ijtimoiy taraqqiyot ijtimoiylashuv va kasbiy yetuklik jarayonlari tavsifining murakkablashuvi bilan ifodalanadi. Buning oqibatida kasbiy ta'lim-hamma vaqt xam talabaning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish masalasini muvaffakiyatli hal eta olmayapti. Shuning uchun bugungi kunda kasbiy ta'lim oldiga quyidagi vazifalar ko'ndalang qo'yilmokda: talabaning kelgusidagi shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatining o'zaro muvofiqligini ta'minlash, qo'shimcha mutaxassislik bilan qurollantirish va faoliyat sohasini o'zgartira olishiga imkon berish, shaxsiy hayotida va kasbiy faoliyatida duch keladigan ijtimoiy, shaxsiy muammolarni hal etishga qodirligi va hozirjavobligini shakllantirish⁵¹.

Mazkur omillarga asoslangan holda, oliy ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashda quyidagi vazifalarga alohida e'tibor karatish lozim:

- talabalarni kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlash;
- talabalarda kasbiy faoliyat mazmunini ifoda etuvchi maqsadlarni tarkib toptirish, ularning o'z eh ntiyoj va imkoniyatlarini to'la anglab yetishlariga ko'maklashish;
- kasbiy faoliyatga doir munosabatlar tizimida, ularning o'z o'rnini aniq belgilay olish va o'z-o'zini namoyon qila olishga o'rgatish;
- talabalarining kasbga tayyorlashda faoliyatli-munosabatli yondashuvni joriy etish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish;
- shaxsning odamga (o'z-o'zini xolis baholash, o'z-o'zini hurmat kilish, qadr-qimmat, or-nomus, vijdon) va olamga nisbatan (insonparvar, demokratik, dialektik, ekologik tafakkur) yuksak axloqiy munosabatini shakllantirish;
- talabalarda tashkilotchilik va boshkaruvga doir fazilatlarni rivojlantirish;
- talabalarni murakkab pedagogik va hayotiy vaziyatlarda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega karorlar qabul kilishga tayyorlash⁵².

Zamonaviy sharoitda talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirishning muhim vositasi - bu shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: jarayonida talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirish quyidagi prinsiplarga amal kilingan holda tashkil etilishi lozim:

- professor-o'kituvchi va talabalarining o'zaro tenglik asosida ijodiy faoliyat ko'rsatish xuquqiga egaligi;

⁵¹ Сериков В.В. Личностный подход в образовании: Концепция и технологии. Монография - Волгоград: Школа, 1994. г

⁵² Якиманская И;С. Личностно-ориентированное обучение в школе. - М.: Сентябрь, 2000-112 с.

- ta’lim jarayonida o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini tarbiyalash imkoniyatining berilishi;

-bir-birini tushunish, o‘zaro xamkorlik,, kommunikativ madaniyatni oshirish muhitini vujudga keltiruvchi individual va jamoaviy ishlarni bir-biri bilan almashtirib turish uchun qulay pedagogik sharoitning yaratilishi;

- izlanish va tadqiqot metodlari bilan bir qatorda xatolarni tuzatish va sinovlar metodidan foydalanishning zarurligi;

-ta’lim jarayonida muammolarni yechish vaziyatining mavjudligi;

- barcha mashg‘ulotlarda o‘zaro dialog asosida nutqiy rivojlanishning zarurligi;

- talabalarda muammoli-vaziyatlarni hal etish malakasini shakllantirishning muhimligi;

- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni talabalarining analistik fikrlashini rivojlanirishga undashining zarurligi;

- professor-o‘qituvchi tomonidan vujudga keltirilgan muammoli va izlanuvchanlikka undovchi vaziyatlar talabada faollik va mustaqillikni ta’minalashga xizmat qila olishi;

- ta’lim jarayonida talabaning amaliy faoliyat ko‘rsatishiga keng yo‘l ochilishi kabilar. Shaxsga yo‘naltirilgan-ta’lim jarayonida professor-o‘qituvchi bilan talabaning hamkorligini vujudga keltirish natijasida quyidagi vazifalarga yechim izlanadi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etishda professor-o‘qituvchi bilan talaba xamkorligini o‘rnatish, o‘zaro bir-birini tushunish, ta’lim jarayoni sub’ektlarining o‘zaro tengligi asosida pedagoglarni vujudga keladigan to‘sirlarni bartaraf etishga o‘rgatish⁵³.

2. Professor-o‘qituvchilarining shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni mazmunida mustaqil ravishda talabalarining rivojlanishini ta’minlovchi komponentlarni kiritishlariga erishish.

3. Professor-o‘qituvchilarini shaxsga "yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida talabaning uzlusiz rivojlanishini hisobga olgan holda ish turlari, ta’limiy topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borishga odatlantirish; bu topshiriqlar talabalarda mustaqillik, kreativlik xamda tashabbuskorlikni tarkib toptirishi lozim. .

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida talabalarining shaxsiy va kasbiy sifatlarini o‘zaro taqqoslash natijasida ularning individual xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bu munosabatlar talabalarni uzlusiz rivojlanirish tizimini belgilaydi. Talabalarni uzlusiz rivojlanirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayon to‘laligicha shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni B.S.Gershunskiyning shaxsni o‘z-o‘zini namoyon qilish konsepsiysi asosida amalga oshirish mumkin⁵⁴.

Eng asosiysi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ijtimoiy talab sifatida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga, shaxsning faol ijtimoiylashuvini ta’minalashga xizmat

⁵³ Бондаревская Е.В., Кульnevич СВ. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. - Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. - 178 с.

⁵⁴ Гершунский Б.С. Образовательно-педагогическая прогностика. Теория, методология, практика: Учебное пособие; - Москва: Наука, 2003. - 768 с.

qiladi⁵⁵. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kasbiy ijtimoiylashtirish vositasi sifatida talabaga kuyidagi rollarni takdim etadi:

- “Hayotiy maqsadlarini to‘g‘ri anglaydigan shaxs”. O‘z qobiliyati imkoniyatlarini yaxshi biladigan, o‘zining faoliyat maqsadini aniq; tasavvur etadigan va bosqichma-bosqich unga erishadigan, buning uchun ko‘proq qulay usullarni tanlay oladigan kishi.

-“Madaniy rivojlanishning faol ishtirokchisi”. Mazkur rolda inson milliy va chet el madaniyatidagi istalgan hodisaga extiyotkorona munosabatda bo‘ladi; o‘z shaxsini va jamiyatning madaniy boyishi jarayonida ishtirok etadi.

-“Yuksak malakali xodim”

-“Vatanparvar fuqaro”. Bu shaxs iktisodiyot, siyosat, tarix, san’at va boshka soxalardagi” masalalardan yaxshi xabardor; xalkaro va milliy muammolarga doir aniq fikrini ifoda eta oladi.

-“Ijtimoiy faol shaxs” Bu-insonning ijtimoiy o‘zgarishlarga qarab, o‘z fikrini kerakli tomonga o‘zgartira oladigan va o‘zgaruvchan ijtimoiy sotsiumda zaruriy, yangi bilimlarni doimiy egallahsha intiluvchanlik rolidir.

Yoshlarning ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishi jamiyatdagi turli ijtimoiy institutlar: oila,maktab, mahalla kabilar hamda ommaviy axborot vositalari - gazeta, radio, televiedeniya; shuningdek, bolaning o‘z atrofidagi odamlar bilan munosabati singarilar tasirida amalga oshadi. Bolaning yoshi ulg‘aygan sari uning shaxs sifatida shakllanishiga ijtimoiy-siyosiy jihatdan ta’sir etuvchi, ijtimoiy institatlarning soni yoxud ta’sir doirasi ham o‘zgarib boradi.

Shu o‘rinda D.K.Dennet tomonidan asos solingen shaxs ijtimoiy.faolligining quyidagi olti sharti:

- munosiblik - mustaqil fikrlovchi munosib ijtimoiy mavjudot bo‘lish;
- mavjudlilik - mustaqil ong va dunyoqarash orqali xamda ruhiy jihatdan ta’sir etish mumkin bo‘lgan ob’ekt sifatida mavjudlik;
- mafkuraviy pozitsiya-mavjud hodisalarga nisbatan o‘z shaxsiy nuqtai nazarining mavjudligi; 4) o‘zaro munosabat - ularning bizga nisbatan mustaqil o‘zaro shaxsiy munosabatda bo‘lishi mumkinligi;
- nutkiy munosabat-ular ijtimoiy hayotda erkin nutqiy munosabat imkoniyatiga egadirlar;
- onglilik -ularda real hayotda mustaqil ravishda o‘z-o‘zini anglash imkoniyati mavjudligini ham e’tiborga olish lozim⁵⁶.

Yoshlarning mustaqil fikr va erkin hayotiy pozitsiyaga egalik darajasining yoki ijtimoiy faol fuqaro sifatida shakllanishini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish faol demokratik ilohotlar davrida muhim sanaladi. Mustaqil fikr va dunyoqarashga ega yoshlargina ijtimoiy faol fuqaro bo‘lishi mumkin. Mustaqil fikri shakllangan yoshlardan faol fuqarolik

⁵⁵ Сафарова Р;Г. ва бошкалар. Умумий ўрта таълим мазмунини модернизациялашнинг дидактик параметлари. - Т.: Фан, 2008. - 222 б.

⁵⁶. Глобалистика: Международнъга междисциплинарнъга энциклопедический словарь.-М.: «ЕЛИМА», --- ЦЦ«Питер», 2006.-С. 489.

darajasi shakllanar ekan. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, davlat va jamiyat boshkaruvidagi ishtiroki, yoshlarning dastlab mustaqil fikrga egaligi, ijtimoiy-siyosiy ongi va ijtimoiy-siyosiy madaniyati darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli malakatimizda jamiyat ijtimoiy-siyosiy sohasini erkinlashtirish va demokratlashtirish jarayonida yoshlarda mustaqil fikrning shakllanishiga uzlusiz ta'lim tizimida katta e'tibor qaratish lozimligi bilan bog'liq tarzda tushuntirilmokda⁵⁷.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- birinchidan, oila va uzlusiz ta'lim-tarbiya ijtimoiy institutlarining yoshlar ijtimoiy faolligining shakllanishiga ta'siri boshqa tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ko'proq. Yoshlarda mustaqil fikr va ijtimoiy faollikning shakllanishi davomida oilaviy tarbiyaning ta'siri unga nisbatan muayyan ma'noda kamaysa-da, biroq, uning ta'siri hech qachon to'liq tugamaydi. Ya'ni, oila yoshlarda ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi asriy ijtimoiy institut sifatida doimiy e'tiborni talab etadi;

- ikkinchidan, yoshlar o'zining ijtimoiy mavjudot ekanligining mohiyatidan kelib, chiqib, tabiiy ravishda ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishga intiladi. Yoshlarning ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishga undovchi ehtiyojlari va zaruriyati ularning uzlusiz ta'lim vositasida mustaqil fikri shakllanishi natijasida amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan uzlusiz ta'lim tizimi yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirishni nazarda tutuvchi istiqbolli mexanizmlarni zamon talabidan kelib chiqib tatbik etishiga zarurat mavjud;

- uchinchidan, yoshlarning mustaqil fikrga ega ijtimoiy faol shaxs sifatida shaklanishi to'rtta muhim omil: biologik, fiziologik, ijtimoiy va madaniy asosda shakllanadi. Mazkur ijtimoiy omillar yoshlarning mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanib, uzlusiz milliy ta'lim tizimi talablarini anglab idrok etish jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, yoshlarning o'ziga xos xususiyatlari sanalmish ushbu omillarni e'tiborga olish maqsadga erishishning asosiy omilidir;

- to'rtinchidan, yoshlarning mustaqil dunyoqarashga ega, erkin fikrlovchi ijtimoiy faol fuqaro, ma'naviyatli inson yoki milliy hamda umumbashariy kadriyatlarni o'zlashtirgan erkin shaxs bo'lib shakllanishida uzlusiz ta'lim muhim ahamiyat ham kasb etadi. Sababi aynan uzlusiz ta'lim bosqichma-boskichlik asosida muayyan sohadagi tegishli nazariy bilim va ko'nikmalarni yoshlarda shakllantirishi bois ham zarur sanaladi. Shuningdek, u o'z o'rnida ijtimoiy faollikning xulq-atvorga ko'chishini ta'minlovchi muhim tarkibiy qismi bo'lgani bois ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Semina Ye.A. (2010). Kompetentnostnaya model vypusknika pedagogicheskogo vuza - budushhego uchitelya matematiki. Almanax sovremennoy nauki i obrazovaniya. - № 5 (36). - S. 133-135.

⁵⁷ Большая психологическая энциклопедия. - М.: «Эксмо», 2007. - С. 212.

2. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta’limi. – 2004. - № 3. – B.24.

4. Mitina L.M. (2004). Psixologiya truda i professionalnogo razvitiya uchitelya. - M.: Akademiya. - 320 s.

5. Raxmanova M.Q. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.

6. Raxmanova M.Q. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped. fan. dokd... diss. – T., 2023. – 220 b.

7. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta’lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta’limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug‘allim həm yzliksiz bilimlendirio‘. 2022. –№3/3, – B. 39-43.

8. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / “Ta’lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

9. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / “Ta’lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

10. Kulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2016). Innovatsionnaya deyatelnost pedagoga v obrazovanii. Molodoy uchyonyu, № 8 (112), S. 978-979.

10. Anorkulova G.M., Kulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2015). Metodologicheskie osnovy sistemnogo podxoda pri podgotovke uchiteley professionalnogo obucheniya. Molodoy uchyonyu, 93:13, S. 588-590.

11. Anorkulova G.M., Kulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2015). Model podgotovki uchiteley professionalnogo obrazovaniya na osnove sistemnogo podxoda. Molodoy uchyonyu, 93:13, S. 590-592.